

FINE ART IN MYSTICISM

ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО В МИСТИЦИЗМЕ
TASAVVUFDA TASVIRIY SAN'AT

Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
f.f.n.Eshanova Gulchexraxon Numonovna eshanova2021@gmail.com

ANNOTATSIYA

So'fiylar insonning zohiriy emas, botiniy kamolotiga eng ko'p e'tibor berganlar. Shu ma'noda islom badiiy san'atida insonni tasvirlash masalasida asosiy go'zallik ma'naviy go'zallik bo'lgan. Islomda ramziy, falsafiy belgilar, shakl va uslublar asosida miniatyura va hattotlik, me'morchilik va naqqoshlik san'atlari keng rivojlandi. Musulmon madaniyatida inson go'zalligini tasvirlash masalasiga Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod o'ziga xos yangicha ijodiy uslubda islomga tasviriy san'atni kiritgan.

Kalit so'zlar. Islom, tasavvuf, Alloh, tasviriy san'at, miniatyura, musavvir, ma'naviyat, madaniyat, qadriyat, inson go'zalligi, ijod.

АННОТАЦИЯ

Суфии больше всего внимания уделяли внутреннему совершенству человека, а не внешнему. В этом смысле главной красотой в изображении человека в исламском искусстве была духовная красота. В исламе на основе символических, философских символов, форм и стилей получили широкое развитие искусство миниатюры и даже живописи, архитектуры и живописи. Камолиддин Бехзод, великий живописец Востока, представил исламу изобразительное искусство в уникальном новом творческом стиле к проблеме изображения человеческой красоты в мусульманской культуре.

Ключевые слова. Ислам, Суфизм, Аллах, изобразительное искусство, миниатюра, художник, духовность, культура, ценность, человеческая красота, творчество.

ANNOTATION

Sufis paid the most attention to the inner perfection of man, not the external. In this sense, in the matter of depicting man in Islamic art, the main beauty was spiritual beauty. In Islam, miniature and calligraphy, architecture and painting arts were widely developed based on symbolic, philosophical signs, forms and styles. In the matter of depicting human beauty in Muslim culture, the great artist of the East, Kamoliddin Behzod, introduced fine arts to Islam in a unique new creative style.

Keywords. Islam, Sufism, Allah, fine arts, miniature, artist, spirituality, culture, value, human beauty, creativity.

Bugungi kunda milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab avaylash, ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, hamda ular asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Islom dini ko'p asrlik madaniyatimiz va qadriyatlarimizni saqlab qolish va keng yoyishda san'at vositasiga asoslanganligidir.

“Dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezigulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo’shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o’rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish”¹ hozirgi kunda dolzarb maslalardan biridir.

Tasavvuf falsafasi avvalo islom qadriyatlarini bir tizimga solgani va san’atga oshno bo’lganligidir.

Tasavvufning borliq haqidagi ta’limoti panteistik harakterga ega bo’lib, sharq falsafasida ikki shaklda mavjuddir: birinchisi, “vahdat ul-vujud”, ikkinchisi, “vahdat ul-mavjud”. “Vahdat ul-vujud”ning asosiy tamoyiliga ko’ra, Xudo yagona, haqiqiy borliq bo’lib, qolgan hamma narsalar uning shu’lasi, nuridir. Alloh butun go’zalligini, kamolotini, kuch-qudratini borliqda namoyon etadi, odamzot ham Allohning nuri ta’sirida jilvalanadi. “Vahdat ul-vujud”ga ko’ra, inson go’zalligi ham Uning jamolining jilvasi, deb ta’lim beriladi. Shu bois ular hurmat-ehtiromga, qadrlashga loyiq. Insonga muhabbat Allohga muhabbatni anglatadi. So’fiylarda moddiy dunyo go’zalligi inkor etilmaydi, ammo moddiy dunyo qimmatli emas. Qadriyat so’fiylar nazarida ruhiylik, Ilohiylik bilan bog’liqdir. Ruhsizlik – xunuklik, o’tkinchilik, foniylilik. Abadiy narsa ruhdur va shu sabab u qimmatlidir, go’zaldir².

Ko’pgina tasavvufshunos mutafakkirlarning diniy falsafiy qarashlari bevosita din va tasviriy san’atga aloqadordir.

Ibn al-Arabiyning fikricha, inson Xudoni ko’rishni istasa, o’zini o’zi takomillashtirishi lozim. Bu g’oya tasavvuf nazariyasining asosini tashkil qilgan hurfikrlilik edi.

VIII-XI asrlarda sufiylik adabiyoti rivojlanib, unda o’ziga xos obrazlar, timsollar, ramzlar va ifoda usullari shakllandi. Tasavvufning ilohiy muhabbat haqidagi konsepsiyasi, g’oyalari badiiy ijodkor ahlini ruhlantirdi. Tasavvufning badiiy ijod bilan ruhan yaqinligi islom madaniyatida adabiyot va san’atining rivojlanishiga turtki bo’ldi. Chunki din ham, san’at ham inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Islom dini qadriyatlarining mohiyatini ochishda eng muhim narsa – inson ruhini takomillashtiruvchi din bo’lgani uchun realistik tasvirlar dinning mohiyatini ochib berolmasdi. Chunki, islom madaniyatida tasviriy san’atga munosabat Alloh qiyofasi, uning badiiy ifodasi masalasini oydinlashtirishdan kelib chiqadi. Ayrim ilohiyotchilar Xudoni antropomorfizm (odam sifatida) ruhida talqin qilishga va odamga xos sifatlarni berishni inkor qilib, uni sof, tanasiz ruh sifatida talqin qilganlar.

Ma’lumki, mu’taziliylar Qur’on oyatlarini dalil qilib olib, o’z qarashlarini bildirishgan. Ular antropomorfizمنى inkor etganlar. Shuningdek, Mu’taziliylar Xudoning mohiyati haqidagi ilmni “ma’na” deb ataganlar. Masalaning bu tarzda qo’yilishi ilohiy hodisalarni ma’naviyat sohasiga ko’chirishga imkon yaratgan.

O’ziga xos sirli, ramziy, chuqur falsafaga ega shakl va uslublar topish kerak edi. Shuning uchun tasviriy san’atning miniatyura va hattotlik, me’morchilik, naqqoshlik turlari ramziylik

¹ Diniy ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 16.04.2018 y. N PF-5416. "Xalq so’zi", 2018 yil 17 aprel. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018 yil 18 aprel.

² Қаранг: Комилов Н. Тасаввуф. Ёзувчи. – Тошкент: 1996. – Б. 155-156.

asosida shakllandi. Unga ko‘ra, go‘zallik, qudrat, poklik, hayrat, g‘ayrat, shijoat va hayot nafosati ham – hammasi Allohdanligini his qila olish sufiyning estetik dunyosini boyitadi. Islom diniga ko‘ra “Kimki o‘zini tanisa, Rabbisini taniydi”, degan hadis mazmunidan kelib chiqadi”³.

Islom dini insonning tafakkuri go‘zalligi, ma‘naviy, ruhiy go‘zalligi islom estetikasining asosini tashkil etadi. Tasavvuf ta‘limotida butun dunyo Allohning ijodi, sifatlarini namoyish etib turadigan ko‘zgu, olamdagi barcha go‘zalliklar, ranglar Uning ijodidir, karomatidir, butun borliq, dunyo Allohning ko‘zguosidir, deb qaraldi.

Allohning ismi va sifatleri uning buyukligi, ulug‘ligi, qudratliligi, go‘zalligini ramziy timsollar orqaligina tasvirlash mumkin edi. Ibn al-Arabiy Qur‘oni karimda Xudoning 99 ta ismi mavjudligi va inson ularni sifatlanishi orqali anglashi mumkinligi haqidagi fikrni aytadi. Bu g‘oya islomning buyuk mutafakkiri Abu Homid G‘azzoliyning qarashlarida rivojlantirilib, shunday izohlanadi. “Alloh hamma uchun sevimlidir, chunki Unda inson tasavvuridagi barcha ezguliklar, insonni o‘ziga tortuvchi, muhabbatiga sabab bo‘luvchi jamiki sifat va hislatlar mavjud. Jumladan, inson o‘ziga yaxshilik qila oladigan saxovatli odamlarni, adolatli shohlarni, shuningdek, barcha go‘zal narsalar, nafosat olami, xushbo‘y, xushsurat narsalar ham sevimli bo‘lib, sahiylar siymosida saxovatni, odillar siymosida adolatni, qahramonlar siymosida qahramonlikni sevamiz”⁴. Barcha ezgu va yaxshi sifatlar egasi Allohni sevish, unga intilish orqali inson komillikka intiladi. Yuqoridagi diniy-ilohiy qadriyatlar tizimi tarzida namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf ta‘limotida inson ma‘naviy kamolot yo‘lini bosib o‘tsa, komil bo‘ladi, komil insongina Xudoga yetishadi, deb ta‘lim beradi.

Ibn al-Arabiy, o‘zingni anglasang, Xudoni anglaysan, ma‘nosida fikr bildiradi. Uning bu fikrlari tasavvuf nazariyasining asosiy g‘oyasi bo‘lib xizmat qildi. Sufiylar insonning zohiriy emas, botiniy kamolotiga eng ko‘p e‘tibor berganlar. Shu ma‘noda “Ilohiyot atrofdagi barcha narsalarda zuhr etar ekan, u insonning qalbida ham o‘z aksini topadi”⁵, deyiladi tasavvuf ta‘limotida.

Islom badiiy san‘atida insonni tasvirlash masalasida asosiy go‘zallik ma‘naviy go‘zallik bo‘lgan. Hadislarda: “Alloh sizning suratlarigiz va amallaringizga emas, balki qalblaringiz va niyatlaringizga boqar”⁶, deyilgan. Jaloliddin Rumi esa tavhid g‘oyasini juda sodda va tushunarli tarzda ifodalaydi. Ya‘ni: “Har bir qulimning ichida mening xayolim va suratim bordir. U meni qanday tahayyul etsa, men o‘sha xayoldaman”⁷, degan fikrda bo‘lgan.

Demak, islom dinida, xususan, tasavvuf ta‘limotida Allohni inson o‘z tasavvuridagina yaratishi mumkin, asosiy e‘tibor kishining botiniy olamiga qaratilishi kerak. Komil inson bo‘lishga intilish uchun jismni, qalbni, ruhni tozalash zarur. Tavhid g‘oyasi mafkurasi badiiy ijodda o‘sha dinning mohiyatini aks ettiruvchi san‘at turini tanladi va uni ifodalashga urindi. O‘rta asrlar tasavvufshunoslari, faylasuflarining asarlaridagi hurfikrlilik qarashlari san‘atning rivojiga katta ta‘sir etdi.

Shu tariqa tasavvufdagi ramziylik tasviriy san‘at bilan integratsiya qilindi.

³ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 2009. – Б. 41.

⁴ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 51.

⁵ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 124.

⁶ Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 153.

⁷ Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 50.

Qur'onning "Nur" surasida "Alloh osmonlar va Yerning "Nuri"dir... Alloh o'zining bu nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur",⁸ deyiladi.

Shunga ko'ra musulmon san'atida komil inson g'oyasi payg'ambarlar, valiyalar, avliyolar, donishmandlar, sultonlar va podshohlar qiyofasida ramziy tasvirlangan.

Islomda Allohning realistik tasviri yoki haykali tasvirlanmaydi, ammo sirli, ramziy, falsafiy belgilar, shakl va uslublar asosida miniatyura va hattotlik, me'morchilik va naqqoshlik san'atlari keng rivojlandi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, ma'naviyat ramziy ma'noda inson qalbida aks etgan ilohiy nurdir, ya'ni unga ilohiy timsol sifatida qaralgan. Inson qalbi go'zalligi asosiy go'zallik sifatida qaraldi.

Musulmon madaniyatida inson go'zalligini tasvirlash masalasiga Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod o'ziga xos yangicha ijodiy uslubda yondashadi. Behzodning diniy asarlari g'oyasi bevosita tasavvuf g'oyasidan olingan edi. U diniy ruhdagi asarlarida asosan Alisher Navoiyning badiiy merosidan keng foydalandi.

Kamoliddin Behzodning eng mukammal ishlangan suratlaridan biri "Layli va Majnun sahroda"⁹ asari bo'lib, unda insonning barkamollik darajasiga ko'tarilishi yaqqol badiiy ifodalangan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, tasavvuf ta'limotida Qur'ondagi oyatlardan kelib chiqib borliqni ham Alloh yaratgan ekan borliq, tabiatdagi barcha go'zalliklar Allohdan, shuningdek, inson go'zalligi ham Allohning go'zalligining bir sifati deb qaraldi.

Musulmon madaniyatida Alloh sifatlari ramziy ma'noda "Nur" timsolida payg'ambarlar, valiyalar, avliyolar, donishmandlar komil inson qiyofasida tasviriy san'atda tasvirlangan;

Kamoliddin Behzod o'z davrining ulug' insonlari hisoblangan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon va boshqa kishilarni komil inson qiyofasida tasvirlagan. Xususan, Alisher Navoiyning: "Shoh darveshlik fazilatiga ega bo'lmasdan turib, shohlikka munosib emas", degan fikrlari bunga misol bo'la oladi. Jamiyatda komil insonlarni ilmi, ruhiy-ma'naviy pok kishilar timsolida tasvirlash an'anaga aylangan;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. **16.04.2018 y. N PF-5416.** "Xalq so'zi", 2018 yil 17 aprel. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018 yil 18 aprel.
2. Қаранг: Комилов Н. Тасаввуф. Ёзувчи. – Тошкент: 1996. – Б. 155-156.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 2009. – Б. 41.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 51.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 124.
6. Жалолитдин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 153.

⁸ Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. / Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа-бирлашмаси, 2007. – Б. 354.

⁹ Қаранг: Полякова Е.А. Раҳимова З.И. Лайли ва Мажнун. (расм) Шарқ миниатюраси ва адабиёти. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 28.

7. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 50.
8. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. / Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа-бирлашмаси, 2007. – Б. 354.
9. Қаранг: Полякова Е.А. Раҳимова З.И. Лайли ва Мажнун. (расм) Шарқ миниатюраси ва адабиёти. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 28.

